

**Internet tarmog‘ida mualliflik va turdosh huquqlarni buzilishi bo‘yicha
internet provayderlar hamda platformalarning javobgarligi yuzasidan**

***Olimov Shahriyor Orif o‘g‘li – Toshkent davlat yuridik universiteti
magistranti.***

Internet tarmog‘ining shiddatli rivojlanishi natijasida intellektual mulk obyetlaridan, jumladan mualliflik va turdosh huquq obyektlaridan foydalanish ko‘lami kengayganligi bilan ularning noqonuniy tarqatilish holatlari ham ko‘payib bormoqda.

Qonunchilikda mualliflik va turdosh huquqlarni internet tarmog‘ida buzgan shaxslarga nisbatan tegishli javobgarlik choralari belgilangan. Amaliyotda aksariyat hollarda “Telegram”, “Instagram”, “Youtube”, “Facebook” kabi ijtimoiy tarmoqlarda (keyingi o‘rinlarda – platformalar) mualliflik va turdosh huquq obyektlarini noqonuniy tarqatgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlashtirish bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Internet provayderlar (tijorat asosida internet tarmog‘idan foydalana olish xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar) hamda platformalar tomonidan mualliflik va turdosh huquq obyektlarini noqonuniy tarqatish holatlarining bartaraf etilishi, agar bartaraf etilmasa ularga nisbatan javobgarlik masalasini nazarda tutuvchi tartibning belgilanishi yuqorida ta’kidlangan muammolarga muqobil yechim hisoblanadi.

Raqamli ming yillikda mualliflik huquqi to‘g‘risidagi Akt (The Digital Millennium Copyright Act (DMCA)) 1998-yilda internet va raqamli media rivojlanishi bilan yuzaga kelgan mualliflik huquqi muammolarini hal qilish maqsadida qabul qilingan AQSh qonuni hisoblanadi. Ushbu qonun internet tarmog‘ida mualliflik huquqi obyektlarini noqonuniy tarqatilish holatlarini oldini olishga qaratilgan.

DMCAga asosan huquq egalariga noqonuniy tarqatilgan kontentni olib tashlashni **talab qilish** imkoniyatini beruvchi “**xabar berish va olib tashlash** (the notice and takedown)” tizimini joriy etish internet provayderlar hamda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

platformalarning majburiyati hisoblanadi. Ushbu tizimga muvofiq huquq egalari tomonidan noqonuniy tarqatilgan kontent to‘g‘risidagi xabar provayderga jo‘natiladi. Provayderlar ushbu kontentni joylashtirgan shaxslarni mualliflik huquqi buzilganligi haqida **ogohlantiradi**. Agar kontentni joylashtirgan shaxslar tomonidan mualliflik huquqini buzuvchi holatlar belgilangan muddatlarda **bartaraf etilmasa** provayderlar ularning sahifalarini **bloklaydi**.

Internet provayderlar va platformalar tomonidan “xabar berish va olib tashlash” tizimi **joriy etilmasligi** yoki ushbu tizim orqali murojaatlarni belgilangan tartibda **ko‘rib chiqilmasligi** DMCAga asosan ularning **javobgar bo‘lishiga** va huquq egalariga yetkazilgan zarar ulardan undirilishiga olib keladi.

DMCAning asosiy qoidasiga muvofiq internet provayderlar va platformalar huquq egalariga mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalaridan foydalanish imkonini yaratishi zarur. DMCAda bunday texnika vositalarini **chetlab o‘tilishi** yoki **cheklab qo‘yilishini** taqiqlovchi tegishli normalar ham mavjud.

Mualliflik yoki turdosh huquq obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining **oldini oluvchi** yoki ularni **cheklovchi** har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e’tirof etiladi.

Shuningdek, DMCA internet provayderlar va platformalarga ularning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mualliflik huquqi buzilishining ayrim turlari uchun **ularning manfaatlarini ko‘zlovchi** qoidani ham o‘z ichiga oladi. DMCAning “**xavfsiz bandargoh** (safe harbor)” qoidasiga ko‘ra, internet provayderlar va platformalar mualliflik huquqining buzilishi uchun **javobgar bo‘lmasligi uchun** huquqbazarlikdan **xabardor bo‘limganligini** va huquq egasi tomonidan huquqbazarlik bo‘yicha bildirishnomasi yuborilgandan keyin uni olib tashlash uchun **tegishli choralar ko‘rganligini** isbotlashi kerak.

Yuqoridagilarga asosan DMCAning quyidagi afzalliklari mavjud:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- huquq egalarining mualliflik va turdosh huquq obyektlarini internet tarmog‘ida noqonuniy takrorlanishi va tarqatilishidan himoya qilinishi;
- internet provayderlar hamda platformalar DMCAda belgilangan talablarga javob bersa, mualliflik huquqi buzilishi uchun javobgarlikdan ozod etilishi;
- “xabar berish va olib tashlash” tizimi orqali noqonuniy tarqatilgan kontentni olib tashlash bo‘yicha samarali amaliyotning mavjudligi.

Ta’kidlash joizki DMCAda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar ortidan salbiy oqibatlar ham kelib chiqishi mumkin.

Xususan, “xabar berish va olib tashlash” tizimidan suiiste’mol qilgan holda foydalanish ya’ni **qasddan yolg‘on** bildirishnomalar yuborish.

DMCAdagi mualliflik huquqini himoya qiluvchi texnika vositalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qoida internet tarmog‘ida joylashtirilgan mualliflik yoki turdosh huquq obyektlarini huquq egasi ruxsatisiz qonunchilikda belgilangan holatlarda hamda tartibda jamiyatning **erkin foydalanish** huquqini amalga oshirishiga **to‘sqinlik qiladi**.

Internetga mualliflik huquqini buzuvchi kontent yuklaganda internet provayderlarining javobgarligi AQSHda DMCA bilan tartibga solingan bo‘lsa, Yevropa Ittifoqida ushbu masalani tartibga solish bo‘yicha bir nechta Direktivalar qabul qilingan.

Xususan, samarali faoliyat yuritadigan mualliflik huquqining elektron bozorini kengaytirishga qaratilgan Yevropa Ittifoqining “Raqamli yagona bozorda mualliflik huquqi to‘g‘risida”gi direktivasida (*Directive 2019/790*) platformaga mualliflik huquqini buzuvchi kontent yuklaganda platforma egalarining javobgarligi nazarda tutuvchi tartib belgilangan.

Direktivaning 17-moddasida agar platformada mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontent noqonuniy tarqatilsa, platforma o‘z foydalanuvchilari joylashtirgan kontent sababli javobgar bo‘lmasligi uchun quyidagi talablarga amal qilgan bo‘lishi kerak:

1. Huquq egasidan **ruxsat olish** uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshirishi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. Huquq egalari tomonidan platformada ro'yxatdan o'tgan mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontentni boshqa foydalanuvchilar tomonidan tarqatilishiga yo'l qoymasligi.

3. Huquq egasidan tegishli **bildirishnoma** olgandan so'ng, mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontentni platformadan **olib tashlash** uchun tezkorlik bilan harakat qilishi.

4. O'chirilgan kontentni **qayta yuklanishining oldini olish** uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishi.¹

Shuningdek, DMCAning internet provayderlar hamda platformalarning mualliflik huquqi buzilishi bo'yicha javobgarligini nazarda tutuvchi qoidalari samarali model sifatida quyidagi davlatlarning qonunchiligidagi o'z aksini topgan:

- Turkiyaning "Internet to'g'risida"gi 5651-sonli Qonunida.
- Yaponianing "Internet provayderlarning javobgarligini cheklanishi to'g'risida" 137-sonli Qonunida
- Koreya, Singapur va Xitoyning "Mualliflik huquqi to'g'risida" gi Qonunlarida
- Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1253¹-moddasida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar haqida"gi Qonun. 2006-yil 21-iyul.

1.2. Raqamli ming yillikda mualliflik huquqi to'g'risidagi Akt.

Internet saytlari va elektron manbalar

- 4.1. www.opil.ouplaw.com
- 4.2. www.lexisnexis.com
- 4.3. www.lex.uz
- 4.4. www.wto.org
- 4.5. www.wipo.int
- 4.6. www.minjust.uz

¹ Raqamli ming yillikda mualliflik huquqi to'g'risidagi Akt
www.tadqiqotlar.uz